

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SON SO'Z TURKUMINI O'RGANISHDA  
GRAMMATIK O'YINLARDAN FOYDALANISH**

**G'oyimov Umar Eshmurodovich**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi*

*3-bosqich talabasi Umirova Mohinur Mirzo qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini son so'z turkumini o'rgatishda grammatik o'yinlardan foydalanishning ahamiyati xususida fikr yuritiladi .

**Kalit so'zlar :** miqdor , metod , ko'rgazmali materiallar , termin , tushuncha , miqdor sonlar , tartib sonlar .

**KIRISH**

Boshlang'ich sinflarda son so'z turkumini o'rgatish , bosqichma-bosqich izchillikda osondan murakkabga qarab o'rgatila boshlanadi . Dastlab o'quvchilar tasavvurida son so'z turkumi haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi . Dars jarayonini samarali va qiziqarli bo'lishida boshlang'ich sinf o'qituvchisining mahorati va kreativligi muhimdir . O'quvchilar yangi mavzuni tushunishda turli xil qiyinchiliklarga , muammolarga duch kelishlari tabiiy holat . Mana shu kabi muammolarga oson yechim topish uchun mavzu yuzasidan turli metodik usullar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi . O'quvchilar yangi mavzu bo'yicha egallagan bilimlarini grammatik mashqlar vositasida mustahkamlaydilar . Turli grammatik mashqlar o'quvchilar mavzuni yanada yaxshiroq tushunishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi .

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI**

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid turli ilmiy adabiyotlardan va boshlang'ich sinf darsliklaridan foydalanildi .

**MUHOKAMA**

Bilamizki boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni biroz murakkab jarayon hisoblanadi . Boshlang'ich sinflarda son so'z turkumining 3 asosiy yo'nalishi o'rgatiladi .

- Sonlarning talaffuzi va ma'nosi ustida ishlash
- Son so'z turkumining grammatik shakllari ustida ishlash
- Sonlarning imlosi ustida ishlash

Yuqorida keltirilgan 3 asosiy bosqichni boshlang'ich o'quvchilari puxta

o'zlashtirishlari zarur hisoblanadi .Dastlab birinchi bosqichda sonlarning talaffuzi , umumiy olib qaralganda esa , son so'z turkumining atash ma'nosi , ya'ni leksik ma'nosini o'quvchi tasavvurida shakllantirish lozim . 2-bosqichda esa , o'quvchilar son so'z turkumi haqida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladilar .Tasavvur va tushunchalar yanada kengayib boradi . Va eng so'ngi 3-bosqichda son so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlar imlosi ustida ishlash haqida o'quvchilar yangi ma'lumotlarga ega bo'ladilar .Boshlang'ich sinf o'quvchilari son so'z turkumiga oid dastlabki va asosiy tushunchalarni egallashlari , ularning keying sinflarda egallaydigan yangi bilimlarni o'zlashtirishlari uchun asos bo'lib xizmat qiladi .

O'qituvchi yangi mavzuni bayon etish paytida , mavzuni yoritilish jarayonida ilmiy terminlarni , murakkab tushunchalarni ishlatgan holda mavzuni yoritisa , o'quvchida yangi mavzu yuzasidan ko'pgina tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin . Shu boisdan ham mavzuni tushuntirish jarayonida , o'quvchilar tushunadigan termin va iboralardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi . Son so'z turkumini o'rganishda , o'quvchilar mavzuni yanada anglab yetishlari uchun dars jarayonida , ko'plab grammatik o'yinlardan , turli xil mavzuga oid ko'rgazmali qurollardan foydalanilsa , dars mazmundorligi yuqori bo'ladi . Grammatik o'yinlar deyilganda , mavzu yuzasidan kelib chiqqan holda , o'quvchilarni yangi mavzu bo'yicha egallagan bilimlarini yanada mustahkamlovchi o'yinlar tushuniladi .Son so'z turkumiga oid ko'plab grammatik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin. Misol qilib aytganda , sonning ma'no turlari mavzusiga oid quyidagi grammatik o'yinni dars jarayonida qo'llash mumkin . Grammatik o'yinimizni nomi "Quvnoq doirachalar " deb nomlanadi va ushbu o'yinda o'quvchilar jamoaviy tarzda ishtirok etishadi .O'qituvchi oq listga doirachalar rasmini chizadi va yana boshqa bir listga sonning ma'no turlariga oid ko'plab so'zlarni yozadi . 3 ta guruhga bo'lingan holda , o'quvchilar jamosi tuziladi. 2 daqiqa ichida o'quvchilar sonning ma'no turlariga oid so'zlar guruhini alohida , alohida doirachalarga yozishlari kerak bo'ladi . Ushbu grammatik o'yin orqali o'quvchilar ham yangi o'tilgan mavzuni mustahkamlaydilar , ham o'quvchilar o'rtasida guruh bo'lib ishlash ko'nikmasi shakllanadi.Dars jarayonida qo'llanilgan son mavzusiga oid didaktik o'yinlar va boshqa metodlar darsda o'quvchilar faolligini oshiradi va mavzuni yanada yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi .Son mavzusiga oid ko'plab ko'rgazmali qurollardan foydalanish ham dars samaradorligini va ilmiylik jihatini yanada oshiradi .

Bundan tashqari o'qituvchi darsda foydalanish uchun mavzuga oid turli tarqatmali materiallardan foydalansa , o'quvchilar uchun yangi mavzu yanada tushunarli bo'ladi . Bulardan tashqari o'qituvchi son so'z turkumi ishtirok etgan so'zlardan iborat bo'lgan matnni tanlab , matn ichida ishtirok etgan son so'z turkumiga oid so'zlarni topish vazifasi o'quvchilarga berilsa , o'quvchilar matnni

diqqat bilan o'qiydilar va son so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib olishadi. Ushbu grammatik o'yin orqali, o'quvchilarda so'z turkumlarini aniqlash bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

### **XULOSA**

Umumiy qilib aytganda, mavzuga oid bo'lgan grammatik o'yinlarni izlab topish va dars jarayonida ularni qanday tartibda qo'llash bu pedagogning mahorati, ijodkorligiga bog'liq hisoblanadi. Grammatik o'yinlarni dars jarayonida qo'llash natijasida, o'quvchilarning fanga va mavzuga bo'lgan mehrlarini oshirish mumkin bo'ladi. Son mavzusiga oid ko'plab grammatik o'yinlar bular bilan bir qatorda turli didaktik o'yinlarni ham dars jarayonida qo'llash, dars sifatini va o'quvchilar bilimini oshirishga ko'mak beradi. Son so'z turkumini o'rgatishda, grammatik o'yinlarni tizimli ravishda dars jarayoniga tatbiq etiladi. Son tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sonlar bilan boyitib borish, fikr bayon etish paytida sonning ma'no turlaridan o'rinli foydalanish haqidagi tushunchalarni hosil qilish muhim jarayonlardan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ibragimova D.va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma.
2. Po'lotova .A "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma 3.Qirg'izov.N "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma.
4. Qirg'izov .N "Ona tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma.
5. O'rinbayeva .D "Ona tili fanini o'qitish metodikasi".
6. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklari.
7. Ziyonet tarmoqlari.